

KITOBXONLIK MADANIYATI

Jo‘raboyeva Laylo Maxmayusupovna

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Axborot Resurslar Markazi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7264447>

Annotatsiya. Mazkur maqolada, mamlakatimiz yoshlarining ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy jixatdan kamol topishida beqiyos o‘rin tutadigan hamda jamiyat kelajagiga ta’sir ko‘rsatadigan kitobxonlik madaniyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik madaniyati, jamiyat, yoshlar, Vatan, ma’naviyat.

БИБЛИОТЕЧНАЯ КУЛЬТУРА

Аннотация. В данной статье описывается культура чтения, которая играет несравнимую роль в духовно-воспитательном и общественно-политическом развитии молодежи нашей страны и влияет на будущее общества.

Ключевые слова: читательская культура, общество, молодежь, Родина, духовность.

LIBRARY CULTURE

Abstract. This article describes the culture of reading, which plays an incomparable role in the spiritual-educational and social-political development of the youth of our country and affects the future of society.

Key words: reading culture, society, youth, Motherland, spirituality.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida, mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy-intelektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatanimiz va xalqimizga muxabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan mamlakatimiz prizidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish to‘g‘risida”gi PQ-32-71-son qarori asosida, yurtimizning barcha ta‘lim dargohlarida hamda ta‘lim sohasiga tegishli bo‘lgan dargohlarda, kitobxonlikni rivojlantirish borasida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirib borilmoqda. Biz buning misolini dastlab, yurtimiz yoshlarini kitobxonlikka jalb qilish ularning bo‘s sh vaqtlanini unumli o‘tkazish maqsadida, kitobxonlik bo`yicha tanlovlardan o`tkazishni va unga jalb qilish ishlarini amalga oshirilayotgani buning yaqqol dalilidir. Prezidentimizning “bugun bitta kitob o‘qigan bola, ertaga o‘nta televizor ko‘rib o‘tirgan bolani boshqaradi” deb ta’kidlagan so‘zları yoshlarga qaratilayotgan e’tibor naqadar kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Bu so‘zlarning zamirida esa kitobning qay darajada yoshlar ongiga va tafakkuriga ijobiy ta’siri yuqori ekanligi bilan birga ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishi va yuksaklarga eltvuvchi kuch ekanligini anglashimiz mumkin.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Kitobxonlik madaniyatini dastlab yoshlar miqyosida shakillantirish muhim ahamiyatga egadir. Jamiyat va millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bilimli, ma’naviyatli va ma’rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishidagi o‘rni beqiyos. Bu kabi yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri-mutolaa qilish vositasi ya’ni kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga

yorug‘lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan buniyodkorlikning farqini ongli ravishda ajratish va anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyat ham bu-kitobdir. Buning yaqqol misoli, Allohning kalomi bo‘lmish Qur’oni karim ham kitob shaklida yer yuziga tushurilganida ko‘rsak ham kitob har doim insonni komillikka yetaqlashishini ko‘ramiz.

Kitob insonni ulug‘laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik va Vatanparvarlik kabi yuksak ruhiyatni shakillanishiga yordam beradi.

TADQIQOT NATIJASI

Kitob mutolaasi orqali o‘zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo‘lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo‘lib, u inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘lguvchi sodiq do‘stdir.

Biz eng avvalo bolalarimizga yoshligidan boshlab o‘zbek xalq ertaklaridan so‘zlab berishimiz orqali ularda, mehnatsevarlik, samimiylit, mehmondo’slik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni kamol topishiga yordam beramiz. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumi kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz orqali esa ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarini, milliy ruhini va milliy g‘urur kabi yuksak fazilatga ega bo‘lgan tushunchalarni anglashiga yordam beramiz.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasida kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, “Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik savyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi”, aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, biz ajdodlarimiz merosiga, urf odatlarimiz va qadryatlarimizga nazar soladigan bo‘lsak, ular ichida eng qadimiy va noyob sanaladigan buyuk me’ros bu – kitobdir. Ayniqsa kitob meros va urf odatlarimizni o‘zida mujassamlashtiradigan, insonlarni ezgulikka chorlaydigan noyob bilim manbai hisoblanadi.

Kitobga qiziqish, kitob haqidagi tasavvurlar, insonga o‘yin faoliyatidan boshlab singdirib boriladi. Dastlab ularga ota-onalar tomonidan qisqa mazmunda ertaklar o‘qib berish orqali, badiiy obrazlar go‘zalligini his etib tarbiyalanib boradi. Ana shu dastlabki uchrashuv bolaning o‘quvchilik davrdagi ma’naviy hayotining barcha sohalari, yani mehnat, o‘yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog‘liq bo‘lib bola hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Demak, bolani kitobga qiziqtirish unda kitobxonlikni shakllantirish dastlab oiladan boshlanar ekan. Ota-onal bolaga qiziqarli uni hayolot olamiga yetaklaydigan ertak va rivoyatlarni mutolaa qilib berar ekan, bolada mardlik, jasurlik, irodalilik, birdamlilik, hamjihatlik, mehr va muxabbat, ezgulik xislatlari mukammal shakillanib boradi. Bu jarayon esa bolaga ota-onal tomonidan maktabga ilk qadam qo‘ygunicha davom ettirilib, boshlang‘ich sinfga kelgandan keyin esa o‘zi kitoblarni mutolaa qilishga harakat qila boshlaydi. Bu esa yoshlarda katta hayot oldidan dastlabki to‘g‘ri qadam bo‘lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Kitob o‘qishga qiziqtirishda ota-onalik eng dastlabki fundament bo‘lib, bolaga maktabgacha bo‘lgan davrda, bolaning qiziqishlariga qarab kitobni o‘qib berib unga mehr uyg‘otsa, kitobning nima ekanligini, uning sir-sinoatlari haqida ma`lumot bersa, bolaning kitobga qiziqishi kenggayib kitob o‘qishga ishtiyoqi shakllanib boradi

Biz o‘z farzandlarimizni kitoblar olamiga olib kirishimiz uchun ularda dastlab kitobga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishimiz kerak. Buning uchun esa farzandlarimizga qanday kitob harid qilishimizga borib taqaladi. Kitob harid qilishimizda quyidagi tamoyillarga rioya qiladigan bo‘lsak biz o‘z maqsadimizga erisha olamiz:

- ❖ Kitobning, kitob o‘qidigan bolaning yoshiga mos kelishi;
- ❖ Kitobni bolaning xarakteriga mos kelishi;
- ❖ Kitobning, bola qobiliyatiga taalluqliligi, qiziqishni shakillantirishga yo‘nalishi bilan ma’lum kasbga yo‘nalganligi;
- ❖ Kitobning mazmuniga ahamiyat berish;
- ❖ Kitobning qanday tilda yozilganligi;
- ❖ Kitobning hajmi va ko‘rinishi;

Bular kitob egasining kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishdagi eng asosiyomillar desak adashmagan bo‘lamiz. Biz alohida ta’kidlashimiz joizki o‘z farzandlarimizni qanday kitoblar mutolaasi bilan shug‘ullanayotgani bilan ham qiziqib borishimiz darkor. Hozirgi kunda axborot dunyosi va internet tizimidagi kitoblarning son sanog‘i yo‘qligi bizni bir tarafdan ogoh bo‘lishimizni talab etadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlari onggiga qaratilgan tahdid ko‘rinishidagi maxsus tayyorlangan kitoblar bizni sergaklikka chorledi. Biz o‘z farzandlarimizni qanday kitob mutolaasi bilan shug‘ullanayotganini tekshirishimiz bilan birga bu kitoblarning chop etigan nashriyoti, zarur bo‘lganda esa kitob muallifini ham tekshirib borishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-onalik tanlashda e’tiborga olishi va ahamiyat berishini talab etadi. Bola yoshi ulg‘aygan sari uning dunyoqarashi ham kengayadi.

Shubhasiz, insoniyat umri davomida o‘z ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ham ma’naviy ehtiyojning qadri ortadiki, aslo yo‘qolmaydi.

Ma’naviy qashshoqlik va ma’naviy tanazzul jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Ma’naviyati yuksak va barkamol jamiyat esa davlat taraqqiyotiga asosiy poydevor bo‘lib qolaveradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: «G‘afur G‘ulom», 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida. Xalq so‘zi, 2017 yil 14 sentiyabr. – № 184.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati / O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. – 448 b.